

ILK O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDA HOJI MUINNING TUTGAN O‘RNI

Ehtiromxon Qudratullayev

Munajat Asqarova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Ilk o‘zbek dramaturgiyasi rivojida Hoji Muin ijodining tutgan o‘rni beqiyosdir. O‘zbekistonning milliy istiqloli uchun jon fido qilgan adib va jurnalist Hoji Muin hayot yo‘li yoshlarimiz uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib kelmoqda. U ish faoliyati mobaynida xalq ozodligi, ta’lim-tarbiyasi, taraqqiyoti ichun ko‘plab maqolalar va asarlar yozgan. Ma’rifatparvar adib umrining ohirigacha vatan ozodligi uchun kurashgan. Ushbu maqolada ilk o‘zbek dramaturgiyasida Hoji Muinning tutgan o‘rni haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, millat, istiqloq, “Forscha alifbolar tarixi”, “Guldastai adabiyot”, Mahmudho‘ja Behbudiy, “Samarqand”, “Oyna”, pora ber, NKVD, “Padarkush”, Korrupsiya, poraxo‘rlik

THE ROLE OF HAJI MUIN IN THE EARLY UZBEK DRAMATURGY

Ehtiromkhan Gudratullayev

Munajat Askarova

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: The role of Haji Muin’s work in the development of the first Uzbek dramaturgy is incomparable. The writer and journalist Haji Muin, who sacrificed his life for the national independence of Uzbekistan, has always been a school of example for our youth. During his career, he wrote many articles and works for people's freedom, education and development. The enlightened writer fought for the freedom of his country until the end of his life. This article provides detailed information about the role of Haji Muin in the first Uzbek dramaturgy.

Keywords: dramaturgy, nation, independence, “History of Persian alphabets”, “Guldastai literature”, Mahmudhoja Behbudi, “Samarkand”, “Oyna”, give a bribe, NKVD, “Padarkush”, Corruption, bribery

O‘tgan asrning boshida vatan ozodligi, xalqning ma’rifati, millatning taraqqiyoti uchun kurashgan ilg‘or ma’rifatparvar ziyolilarning safida, milliy uyg‘onish davri Samarqand adabiy muhitida samarali ijod etgan istedadli vakil, jurnalist, shoir, dramaturg va tarjimon safida Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining ham o‘ziga hos o‘rni bor. Hoji Muin 1883-yil 19-martida Samarqand shahrining Ruxobod mavzyeida tug‘ilgan.

Uning otasi Shukrullo ota savdogar bo'lib, u juda yosh vafot etadi. Ya'ni 32 yoshida vafot etadi. Yosh Hoji Muin o'n ikki yoshida ham ota ham onasidan ayrilib Ruxoboda Guzari masjidining imomi bo'lgan bobosi Mirsaid Sharif o'g'li qaramog'ida qoladi. Shu vaqt mobaynida xat-savodi chiqib, bobosidan arab tili qoidalarini va diniy ilmlarni o'rganadi¹. Keyin esa eski maktabda savodini mukammal chiqaradi. Uning madrasadagi ustozisi Saidahmad Vasliydan bo'lgan.

Hoji Muin ustozidan rus tili va Yevropa madaniyatini katta qiziqish bilan qisqa muddat ichida o'rganib olgan. Shu bilan birga ustozisi Saidahmad Vasliy unga arab tili grammatikasini o'rgatishdan tashqari she'riyatga bo'lgan muhabbatini ham kuchaytirgan. Keyin sekin-astalik bilan uni o'z davrining ma'rifatparvarlari davrasiga olib kirgan va ular bilan yaqindan tanishtirgan. U saboqlarini tugatgach 1901-yili eski maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. O'z sohasidagi tajribalari va ko'nikmalari ta'sirida 1903-yilda Xo'ja Nisbatdor mahallasida o'z uslubidagi yangi maktabni ochadi. Xuddi shu yili Vasliyning uyida Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishuvi uning hayotida yangi davrni boshlab beradi. Bundan tashqari Behbudiyning "Muxtasari jugrofiyai umumiy" nomli asari Hoji Muinda juda katta ta'surot qoldiradi. Keyinchalik bir maqolasida Behbudiy haqida shunday deb xotirlaydi: "Shuni ham unutmaymankim, mazkur jugrofiya kitobining "Tatbiqoti diniya" faslida: Ba'zi eski xurofot va isroiliyat so'zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan mazmunidagi jumlar o'shal vaqtda manim fikrimda zo'r o'zgarishlar yasadi. Ya'ni, o'shal jumla meni birinchi marotaba fikriy inqilobga uchratdi. Men ushal kundan e'tiboran har bir eski va yangi kitoblarni diqqat bilan, muhokama bilan o'qiyturg'on bo'ldim. Mana shuning uchun men ayta olamankim, mening ma'lumotimga turk-totor matbuoti sabab bulg'onidek, meni birinchi martaba fikriy inqilobga uchratg'on Behbudiy hazratlarining mazkur bir-ikki jumla so'zidir. Men mazkur tarixdan e'tiboran Behbudiy afandig'a chin ko'ngil ila muxlis bo'ldig'imdek, o'shal vaqtdan boshlab mavqei kelganda har yerda oni mudofa etaturg'on bo'ldim". Yani Hoji Muin shu tariqa Behbudiyning o'ziga ustoz deb bildi va uning haqiqiy izdoshiga, munosib shogirtiga aylandi².

Turk-tatar matbuoti va adabiyotini har yangi sonini o'qib borishi hamda Behbudiy boshchiligidagi Samarqand ma'rifatparvarlari ta'sirida taraqqiyparvar inson bo'lib shakllangan Hoji Muin o'z zamondoshlari orasida, eng avvalo, jadid maktabining muallimi sifatida tanildi. Hoji Mumin Jadid muallimlari qatorida darsliklar yozib, chop ettirgan. Jumladan 1908-yili fors tilida "Rahnamoi savod", I.Raxmatullazoda bilan hamkorlikda o'zbek tilida "O'qituvchi" nomli alifbo kitoblarini yozadi va 1926-yili "Forsch alifbolar tarixi" maqolasini yozadi va chop ettiradi.

¹ <https://uz.m.wikipedia.org>.

² Istiqol Qahramonlari "Hoji muin" Toshkent 2010-yil. B-5.

Yangi maktab muallimlari bolalarga nafakat ta'lim, balki tarbiya berishni ham o'z oldilariga ulkan maqsad qilib qo'ygan edilar. Hoji Muin mashhur ma'rifatparvar A.Shakuriyning iltimosi bilan bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator she'rlarni turkiydan forsiyga tarjima qilgan. Keyinchalik ustoz Mahmudxo'ja Behbudiy yordamida ularni "Guldastai adabiyot" nomi bilan to'plam holida chop ettirgan. Bolaligidan Ahmad Yassaviy va Boborahim Mashrab gazallarini sevib o'qigan Hoji Muin o'zi ham o'n bir yoshidan she'rlar yoza boshlagan. Lekin yillar o'tib uning harakatlari shoir emas, balki mohir dramaturg, qalami o'tkir publisist bo'lib yetishishini talab qildi. 1914-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi sahnada namoish etilgan va buni ko'rgan Hoji Muin bundan ta'sirlanib shoirligini bir chetga surib, sahna asarlarini yozish va sahnada adabiyotni yoritishga bel bog'lagan. Shunday qilib u tez orada "To'y" pyesasini yozib bitirgan. Shundan keyin sekin-asta dramaturgning "Eski maktab, Yangi maktab", "Mazluma xotin" kabi pyesalari, "Ko'knori" intermediyasini yaratgan.

U 1913-1915-yillarda "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalida ish faoliyatini olib borgan. 1916-1917-yillar mobaynida oilaviy muommolari sababli Rossiyaga borib ishlab kelgan. U o'z ona yurti Samarqandga qaytgach, 1917-1918-yillarda "Hurriyat", "Mehnatkashlar o'qi", 1918-1922-yillarda "Mehnatkashlar tovushi", 1922-1926-yillarda "Zarafshon", 1926-1929-yillarda "Ovozi tojik" gazetalarida, 1919-yillarda "Tayoq", 1922-1926-yillarda "Mashrab", 1926-1929-yillarda "Mushfiqiy" jurnallarida ishlagan. XX asr boshlarida milliy matbuotda jaholatdan qutilishdek ezgu bir maqsad, intilish bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat bu maqsadni amalga oshirishda matbuot suv va havodek zarur bo'lgan. Hoji Muin ham shu ishlarga bel bog'lab qo'lga qalam olib ishga tushgan va 1907-1937-yillar davomida 23 hil gazeta va jurnallarda 200 dan ortiq maqollar, 400 tacha habar va o'zbek va tojik tillaridagi 1500 misraga yaqin sherlari bilan o'z hissasini qo'shgan. Hoji Muin ko'plab jurnallarda chop ettirgan maqolalari xalqning ma'naviyatini shakillantirish, t'lim-tarbiyasini oshirish, yurtning ozodligi, millatning erki haqida kuylagan ijodkorlardan biridir.³

Hoji Muinning ustozlarga bo'lgan hurmati nihoyatda beqiyos bo'lgan. Jumladan publisistik maqolalariga nazar tashlasak, Mahmudxo'ja Bexbudiyning hayoti va ijodini, uning hotirasini Hoji Muin kabi yodga olgan insonni uchratmaymiz. Albatta u har yili 25-mart Bexbudiy vafot etgan kuni ustoz hotirasini yodga olib u uchun maqolalar yozib jurnallarda chop ettirgan. Hoji Muin ustoz uchun yozgan "Buyuk ustozimiz Bexbudiy afandi" maqolasida ustozining ajoyib hislatlari haqida so'zlagan. Behbudiy afandi halim, ziyrak, so'z mulkining ustasi edi. Ular har so'ziga turli misollar keltirib gapirar, joyi kelganda oyat va hadislardan so'zining isbotini ko'rsatar edi. Shuning uchun ularning suhbatlari g'oyat lazzatli va qiziqarli bo'lar edi va u kishining oldidan aslo ketgimiz kelmasdi deb tariflar bergan. Aytish joizki Hoji Muinning

³ Istiqloq Qahramonlari "Hoji muin" Toshkent 2010-yil. B-15.

nafaqat amalga oshirgan ishlari, balki insoniy fazilatlari va ustozlarga bo‘lgan hurmati bilan ham barchaga o‘rnak qilib ko‘rsatsak adashmagan bo‘lamiz.

Hoji Muinning taqdiri boshqa ijodkorlar kabi fojiali kechdi. 1929-yilning 29 sentabrda boshlangan qatag‘onda birinchilardan bo‘lib asirga olingan va 3 yil Sibirda surgunda bo‘lgan. 1932-yili Surgundan qaytgach, 1934-1937-yillarda O‘zbekiston davlat nashriyotining tojik bo‘limida adabiy xodim, “Qizil Yulduz” gazetasi muxbiri bo‘lib o‘z ijodini davom ettirgan. 1938-yil 24-yanvarda yana nohaq hibsga olinib, NKVD qoshidagi uchlik hukmi bilan 10 yilga qamalgan. 1942-yili Solikamsk lagerlaridan birida hukmni o‘tash chog‘ida halok bo‘lgan. Hoji Muin bu olamni tark etgan bo‘lsa-da uning bizlar uchun qildirgan asarlari hamisha halqimizning tilida va dilida mangu yashab kelmoqda va abadiy qolajak. Ilk o‘zbek dramaturgiyasida Hoji Muinning tutgan o‘rni nihoyatda beqiyosdir. O‘zbekistonning milliy istiqloli uchun jon fido qilgan adib va jurnalist Hoji Muin hayot yo‘li yoshlarimiz uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.m.wikipedia.org>.
2. Istiqlol Qahramonlari “Hoji muin” Toshkent 2010-yil.
3. © 2004-2020 - Ziyo istagan qalblar uchun!
4. Xurshid Davron kutubxonasi www.kh-davron.uz.